O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Rektor __________ Sh.Sirojiddinov
2023-yil 28-avgust

# FOLKLOR MATNSHUNOSLIGI MUAMMOLARI

# FANINING SILLABUSI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230 000 – Tillar |
| **Magistratura mutaxassisligi:** | 70230301– Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (O‘zbek tili) |

**Toshkent-2023**

| Fan/modul kodi | Fan/modul turi | Ta'lim tili | Ishlab chiqilgan o'quv yili |
|---|---|---|---|
| 302FMM 2 4 | tanlov | o'zbek | 2023/2024 |

| Semestr | Har bir semestrdagi modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Jami: | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 2 | Folklor matnshunosligi muammolari | 4 | 4 | 60 | 30 | 0 | 30 | 0 | 60 | 120 |
| | **Jami:** | 4 | 4 | 60 | 30 | 0 | 30 | 0 | 60 | 120 |

| Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar | |
|---|---|
| 1. | Folklor matnshunosligi (302FM 2 4) |
| 2. | Matnshunoslik (302 M 3 5 08) |
| 3. | Matnshunoslik nazariyasi (302MN 1-2 9) |

## 1. FANNING MAZMUNI

**Fanni o'qitishdan maqsad** – folklorshunoslik, adabiyotshunoslik, dialektologiya va tilshunoslikni bog'lovchi folklor matnshunosligi fanining magistratura bosqichida o'rganiladigan fundamental masalalari yuzasidan bakalavriat yo'nalishida olingan nazariy bilim, ilmiy tadqiqot malakasi va ko'nikmasini mustahkamlash, so'nggi davrlarda folklor matnlarini va umuman qo'lyozmalarni o'rganish bo'yicha hukumatimiz tomonidan e'lon qilingan qaror va farmonlar asosida yosh avlodni tarbiyalash hamda kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun zamin hozirlashdan iborat.

**Fanning vazifasi** – magistraturada folklor matnshunosligi muammolarining tushunchaviy apparati, mumtoz va zamonaviy matn qo'lyozmalarini qiyosiy o'rganish asoslari, tayanch nusxani belgilash tamoyillari, mukammal nusxani yaratish usullari, keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'ladigan qarashlar tizimini yaratish kabi masalalarni kompleks tadqiq etish.

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

**Talaba bilishi kerak:**

– Folklor matnshunosligi muammosi tushunchasining nazariy masalalari yuzasidan talabalarda analitik mushohada va muhim xulosalar chiqara olish haqida ***tasavvurga ega bo'lishi (bilim)***;



– mavjud folklor matnlarni tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish, Folklor matnshunosligining tarixiy ildizlari va namunalarini matnshunoslik masalalari bilan aloqadorlikda o'rganish ***bilishi va ulardan foydalana olishi (ko'nikma)***;

– folklor matnlari tarixini Sharq va jahon adabiyoti kontekstida qarash lozimligini uqtirish, egallangan bilim va malakani umumma'naviyatini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tatbiq etish **ko'nikmalariga *ega bo'lishi lozim (malaka)***.

## 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

- ma'ruzalar;
- taqdimotlarni qilish;
- folklor amaliyoti bilan bog'liq ishlar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

## 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan Folklor matnshunosligi muammolari fanidan 120 **soat** 1 semestr *o'quv yuklamasini o'zlashtirgan*, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra *ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan* talabaga 120 **soat** 1 semestr **4 kredit beriladi.**

Talaba belgilangan *ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda* **kreditlar berilmaydi.**

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi**Nazoratlarni amalga oshirish tartibi va baholash mezonlari**

**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**

***Dastur tuzuvchilar uchun eslatma:*** *professor-o'qituvchi tomonidan fanning xususiyatidan kelib chiqib* ***baholash usullari*** *fan yoki modul doirasidagi talabaning yutuqlarini aks ettiruvchi va tasdiqlovchi* ***yozma, og'zaki, amaliy ish, loyiha, portfolio*** *va* ***nazoratlar*** *kabi turlardan tarkib topgan* ***baholash mezonlari aks ettirilishi shart.***

**5 (a'lo) baho** -talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

**4 (yaxshi) baho** - talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

**3 (qoniqarli) baho** - talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

**2 (qoniqarsiz) baho** - talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

***Izoh:*** Nazorat turlari, shakllari va soniga keyingi semestrlar davomida kafedra yig'ilishi qarorlariga asosan o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

## TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarning bilimini baholash tartibi O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** O'tilgan mavzular asosida yozma shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha test shaklda o'tkaziladi.

***Izoh:*** *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

**2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:**

## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

### 2-SEMESTR

**1. Ma'ruza mashg'ulotlari**

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | Folklor matnshunosligi | Folklor manbashunosligi va | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| | muammolari fanining predmeti hamda vazifalari . Folklor matnshunosligi tarixi | matnshunosligi. Folklor matnshunosligining predmeti, maqsadi va vazifalari aniqlashtiriladi. M.Qoshg'ariy – ilk folklor matnshunosi. "Qisasi Rabg'uziy" – folklor matnlarining tadqiqot ob'yekti sifatida. G'ozi Olim Yunusov– folklor matnshunosligini fan sifatida shakllantirgan ilk olim. Hodi Zarif va To'ra Mirzayev – folklor matnlarini tadqiq qilgan olimlar. | |
| 2 | Jahon matnshunosligi maktablari | Yevropada matnshunoslik ilmi. XIX asr olmon tarixiy-filologik maktab (R.Bentli, X.Porson, I.Reyske, G.German, Karl Laxman). Praga matnshunoslik maktabi faoliyatida K.Laxman qarashlarining ta'siri. Matnning filologik tanqidi xususida Karl Laxman (1793-1851) qarashlari. XX asrda Fransiyada G.Lansoi matnshunoslik maktabining yuzaga kelishi. 1970-yillarda Fransiyada yangi matnshunoslik yo'nalishi - genetik tanqid. | 2 |
| 3 | Rus matnshunosligi tarixi | Rus matnshunosligi tajribalari. XIX asr avvalgi choragi bibliografiya va kitobatchilik tadqiqotlari. 1830-yil "skeptik maktab"ning paydo bo'lishi (M.T.Kachenovskiy, M.P.Pogodina, F.I.Buslayev). XIX asr editsion madaniyatning rivojlanishi. Yangi rus adabiyoti matnshunosligi. XX asr Peterburg akademiyasi matnshunoslik tadqiqotlari markazi. A.Shaxmatov (1864—1920) va V.Perets (1870-1935) boshqargan matnshunoslik maktablari. 1920-yillar matnshunoslik nazariyasining ishlanishi. B.Tomashevskiy faoliyati. Rus matnshunosligi an'analarini shakllantirgan S.Tixonravov, V.N.Perets, A.A. Shaxmatov, D. S. Lixachev. | 2 |
| 4 | Folklor manbalarini yig'ish va saralash muammolari. | Matn tarixi ijod tarixining ashyosi sifatida. Folklor matnshunosligida avtograf, dala qo'lyozmasi, oqlama | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | qo'lyozma, fonogrammani dekodlash. | |
| 5 | Xalq dostonlarini nashrga tayyorlashda baxshi va yozib oluvchining o'rni. | Ergash Jumanbulbul, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan, Islom shoir Nazar o'g'li, Abdulla Nurali, Berdi baxshi, Sherna baxshi kabi baxshilar repertuari va ularning ijrosidagi o'ziga xoslik. Baxshichilik maktab lari. Samarqand, Xorazm, Surxandaryo, Qashqadaryo baxshichilik maktablari. Ularning farqli va o'ziga xos jihatlari. | 2 |
| 6 | "Alpomish" dostoni matni tekstologiyasi | "Alpomish" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li va Po'lkan shoir ijrolarida impravizatorlik. Dostonning variant va versiyalari qiyosi va matniy tadqiqi. | 2 |
| 7 | Islom ta'limotining og'zaki ijod namunalariga ta'siri | Islom ta'limoti kirib kelgunga qadar yaratilgan og'zaki ijod namunalari. Islom ta'limoti ta'sirida shakllangan folklor namunalari. Payg'ambarlar hayotiga oid rivoyatlarni keltirishda o'g'zaki ijod namunalarining o'rni. | 2 |
| | | **Jami:** | **14 s.** |

**2. Amaliy mashg'ulotlar**

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | Folklor manba va matni tushunchasi | Folklorshunoslikda matn va manba tushunchasi aniqlashtiriladi. Folklor matnshunosliginiing maqsadi va bugungi kundagi dolzarbligi, folklor matnlarning variantlari bilan o'rganish va ularning matniy qiyosiy tadqiqi tushunchasiga ega bo'lish | 2 |
| 2 | M.Qoshg'ariy – ilk folklor matnshunosi. | « Devoni lug'atit turk » asarida folklor namunalari va ularning bugungi kundagi holati tahlil qilinadi | 2 |
| 3 | "Qisasi Rabg'uziy" – folklor matnlarining tadqiqot ob'yekti | "Qisasi Rabg'uziy" asarida ishlatilgan folklor namunalari va | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| | sifatida. | keying yillarda ko'chirilgan nusxalarda ularning qo'llanilish holati | |
| 4 | G'ozi Olim Yunusov, Hodi Zarif va To'ra Mirzayev – folklor matnlarini tadqiq qilgan olimlar. | G'ozi Olim Yunusov, Hodi Zarif va To'ra Mirzayevning folklorshunos va matnshunos sifatidagi faoliyati yoritiladi | 2 |
| 5 | XIX asr olmon tarixiy-filologik maktab (R.Bentli, X.Porson, I.Reyske, G.German, Karl Laxman). | XIX asr olmon tarixiy-filologik maktab (R.Bentli, X.Porson, I.Reyske, G.German, Karl Laxman) faoliyati o'rganiladi | 2 |
| 6 | Folklor materiallarini to'plash va saralashda muhim jihatlar | Folklor materiallarini to'plashda G'ozi Olim Yunusov tasnifidan foydalanib tasnif qilinadi | 2 |
| 7 | Avtograf, dala qo'lyozmasi, oqlama qo'lyozma, fonogrammani dekodlash. Ularning bo'g'liqligi va farqlari | Avtograf, dala qo'lyozmasi, oqlama qo'lyozma, fonogrammani dekodlash. Ularning bo'g'liqligi va farqlari tushuntiriladi | 2 |
| 8 | Topishmoq, maqol, matal, qo'shiq, lapar, o'lan kabi janrlarni nashrga tayyorlashda muhim belgilar kabi turlarni nashrga tayyorlash | Topishmoq, maqol, matal kabi turlarni nashrga tayyorlashda zamonaviy yondashuv. Qo'shiq, lapar, o'lan kabi janrlarni nashrga tayyorlashda muhim belgilar aniqlashtiriladi | 2 |
| | | **Jami:** | **16 s.** |

**3. Mustaqil ta'lim ishlari**

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | Folklor manbalarini yigish va ularni o'zaro qiyoslash | O'zi yashagan hududda ishlatiladigan folklor namunalari haqida ma'lumot beriladi | 8 |
| 2 | Jahon matnshunoslik maktablari | Jahon matnshunoslik maktablari a'zolari haqida gapiriladi | 8 |
| 3 | Paremik turlarning o'zaro variantdoshini topish | Hududlarda ishlatiladigan paremik turlarni topish va ularni variantdoshi bilan qiyoslash | 8 |
| 4 | Lirik turdagi janrlarni qo'lyozma va nashriy variantlarini qiyoslash | Hududlarda ishlatiladigan lirik tur namunalarini topish va ularni variantdoshi bilan qiyoslash | 10 |
| 5 | Xalq ertaklarini oqib, ulardagi matniy farqlarni aniqlash | Ma'lum mavzudagi ertak tanlanib ularning variantlari bilan qiyoslanadi va undagi tafovutlar tahlil qilinadi | 8 |
| 6 | Baxshichilik maktablarining bir- | Baxshichilik maktablari va ularning | 8 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | biridan farqi | a'zolari faoliyati o'rganiladi | |
| 7 | "Alpomish" dostonini o'qish | "Alpomish" dostoni matniy – qiyosiy tadqiq qilinadi | 8 |
| 8 | "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarni o'qish | "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarni matniy – qiyosiy tadqiq qilinadi | 10 |
| 9 | "Kuntug'mish" dostonini o'qish | "Kuntug'mish" dostoni matniy – qiyosiy tadqiq qilinadi | 10 |
| 10 | D.S.Lixachevning matn tahriri bilan bog'liq qarashlari. | D.S.Lixachevning matn tahriri bilan bog'liq qarashlari o'rganiladi | 12 |
| | | **Jami:** | **90 s.** |

**6. FANNING KURS ISHI MAZMUNI**

Fan bo'yicha kurs ishi biriktirilmagan.

**7. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI**

**Asosiy adabiyotlar:**


1. Sirojiddinov Sh., Umarova S. O'zbek matnshunosligi qirralari. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
2. Азбелов С., Горелов А., Еремина И. Проблемы текстологии фольклора. – Ленинград, 1991. – С. 280


**Qo'shimcha adabiyotlar**


3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Sh. Mirziyoev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida (Xalq so'zi 2017 yil, 21 aprel).
6. Мирзаев Т. Устозлар, сафдошлар, издошлар. - Т: Тафаккур томчилари. 2021. 384 б
7. Эшонкулов Ж. Миф ва бадиий тафаккур. - Т: Фан. 2019. 309 б
8. Рейсер С. А. Основы текстологии. –Л.: Просвещение, 1978. –176с.
9. Митёнок Е. Текстология русской народной необрядовой песни. Автореф. – Москва: 1998
10. Munirov Q. Sharq qo'lyozmalari. – T.: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1962.– 38 b.
11. Правила подготовки к изданию памятников литературы Востока.–М.: ИВЛ, 1959.–28 с.


**Axborot manbalari**


12. http://www.kutubxona.uz
13. http://www.literature.uz
14. http://www.ziyonet.uz
15. http://www.alishernavoiy.uz




**Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot**

| | |
|---|---|
| **Muallif:** | Z.Shukurova ______________ *(imzo)*<br>"Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik"kafedrasi dots.v.b, PhD. |
| **E-mail:** | |
| **Tashkilot:** | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti |
| **Taqrizchilar:** | Sobirova E.N. ______________ *(imzo)*<br>Xorazm viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy, Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);<br>Tilovov A. ______________ *(imzo)*<br>ToshDO'TAU, Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasi dotsenti , filologiya fanlari nomzodi. |

Mazkur sillabus universitet o'quv-uslubiy kengashining 2023-yil ____-avgustdagi _____-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik" kafedrasining 2023-yil ____-avgustdagi ___-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

**O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i** **V.Nazarov**

**Fakultet dekani** **B.Abdushukurov**

**Kafedra mudiri** **R.Zohidov**